

7. Raipovna, V. S., Akramovich, N. A., & Shonazarovich, B. S. (2022). Monopoly organizations, their benefit and harm to society. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(12), 111-114.
8. Raipovna, V. S., Akramovich, N. A., & Durdona, A. (2022). Content and functioning of the market economy. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(12), 105-110.
9. Ваниева, Э. А., & Велиева, С. Р. (2023). Особенности учета национальных лингвометодических традиций при организации обучения иностранных студентов. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 435-438.
10. Raipovna, V. S. (2023). Peculiarities of national linguistic and methodological traditions in education of foreign students. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 38-40.
11. Велиева, С. Р. (2022). Приемы оптимизации деятельности преподавателя в условиях дистанционного обучения. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 385-389.
12. Raipovna, V. S. (2022). Specialities of taking linguistic and methodical traditions into account. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(7), 74-76.
13. Velieva, S. R. (2022). Semantic modules in the language's lexico-semantic system. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(5), 112-117.

QAYG‘USIZ ABDOLNING QAYG‘ULARI

Safartosheva Shalola Aktam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

shalolasafartosheva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek kitobxonlari hali tanishib ulgurmagan Turk tasavvuf adabiyotining yirik vakili Qayg‘usiz Abdolning hayoti va ijodi haqida atroflicha ma’lumot berilgan. Uning asarlaridagi asosiy mazmun-mohiyat to‘g‘risida so‘z ketgan va parchalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, Qayg‘usiz Abdol, Abdol Muso, “abdol” atamasi haqida, Qayg‘usiz Abdolning nasriy asarlari, nazmiy asarlari, nasr-nazm shaklidagi asarlari.

Inson va uning o‘zligini tanish masalasi necha zamonlar kechsa ham muhimligini yo‘qotmaydi. Buni anglash va o‘rganish yo‘lida esa bir qancha ta’limotlar yuzaga kelgan. Tasavvuf ham birlik va borliq, yashash anglami, nafsni tarbiyalash kabi masalalarni qamrab olib, VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan, o‘zining tadrijiy taraqqiyotiga, keng maydoniga ega ta’limotdir. Rus adabiyotshunosi E.Bertels o‘tgan asrning boshidayoq bu haqida qayd etgan edi: ”Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham

anglash qiyin”. Shunday ekan, tasavvufchi allomalar ijodini o‘rganish, chuqur anglash ham insonning o‘zligini tanish yo‘lidagi bir odim hisoblanadi. Hali o‘zbek kitobxonlarining ko‘pchiligi tanib ulgurmagan Qayg‘usiz Abdol ham mana shunday turk tasavvuf vakillaridan biri. Turk mutasavvufchi olimi Abdurahmon Go‘zal va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan uning hayoti va ijodi batafsil o‘rganilgan, tadqiq qilingan.

Qayg‘usiz Abdolning (1341-1444) asl ismi Alovuddin G‘aybiy bo‘lib, Abdol Musoning Janubiy Ozarbayjondan, Xoy shahridan birgalikda kelgan darveshlardan biri. Otasi Husamiddin Mahmud bo‘lganligi aytiladi. Hayoti haqidagi ma‘lumotlar o‘limidan taxminan bir yarim asrdan so‘ng ba‘zi tarixiy hikoyalarda uchraydi. Nasl-nasabiga ko‘ra u bekning o‘g‘li edi. Lekin u moddiy boyliklarning, hashamatli ko‘rkam hayotning o‘rniga darveshlikni tanlaydi. Uning ustози XIV asrda yashagan Ahmad Yassaviy darveshlaridan biri, turk eranlaridan bo‘lgan Abdol Muso edi. Shu o‘rinda “abdol” so‘ziga to‘xtalsak, bu tushunchaning tarixi hijriy taqvimiga ko‘ra miloddan avvalgi III asrga borib taqaladi. Arabchada “badal” va “bedil” bilan, forschada esa “abdalan” so‘zlari bilan ma‘nodosh hisoblanadi. Turk tasavvufida manaviyati jihatdan old qatorda turgan kishilarni ta‘riflash maqsadida ishlatilgan tushunchadir. Bu so‘z Turk tasavvufidan tashqari, Islomdan avval zamonlaridagi Shomonizm e‘tiqodida ham uchraydi. Oldindan Ko‘k Tangri(Yaratuvchi) bilan aloqa quruvchilarga “qam” deyilgan. Bu tushuncha o‘rnini zamonlar o‘tgach “abdol” atamasi egallagan. Islom diniy ta‘limotidagi ba‘zi mazhablarda “abdol” so‘zi ishlatiladi, ba‘zilarida esa yo‘q. Abdol deya ta‘riflangan kimsa, dunyo ishlarini tamoman unutib, bor diqqatini Allohga yo‘naltirgan bo‘ladi. Bu martabaga erishgan kishilar haqiqatning, to‘g‘rining soyasi kabi uning izidan qolmaydi. Turk tili lug‘atida “abdol” so‘zining ba‘zi ma‘nolari quyidagicha ochiqqlanadi:

- sayohatchi, darvesh;
- qiyofati parishon, tilanchi ko‘rinishdagi kishi;
- saffaviylar davrida Eron chegaralarida yashagan turk urug‘laridan biri;
- Anado‘lida yashagan ba‘zi urug‘larga berilgan nom;
- tasavvufda manaviy jihatdan eng ust daraja.

Qayg‘usiz Abdolning hayoti va sayohatlari haqida aniq manbalar deyarli yo‘q. Unga tegishli ma‘lumotlar afsonaviy hikoyalarda va o‘zining asarlarida uchraydi. Asarlarida u ko‘p joylarga sayohat qilgani aytiladi. Hayotiga oid ma‘lumotlarning aksariyati Bektoshiylik afsonalariga asoslangan. Bu rivoyatlarning eng mashhuri uning Abdol Musoga bog‘lanishi haqidagi hikoyadir: Alanya (Antalya) bekining o‘g‘li G‘aybiy ov paytida otgan o‘qi bilan kiyikni qo‘ltiq qismidan jarohatlaydi. Yaralangan kiyik qochadi, G‘aybiy uning orqasidan yuguradi. Kiyik Abdol Musoning uyiga kiradi, uning ortidan kelgan G‘aybiy darveshlardan kiyik haqida so‘raydi. Darveshlar buni ko‘rmaganliklarini aytishadi. Bahs boshlanadi. Abdol Muso voqeaga aralashib, qo‘ltiq ostidagi qonli o‘qni chiqarib, G‘aybiyga uzatadi. G‘aybiy o‘zining o‘qini taniydi va bu voqeadan qattiq ta‘sirlanib Musoga ixlos qo‘yadi va unga murid bo‘ladi. Haq yo‘liga chiqqan Qayg‘usiz o‘ziga pir topadi va unga qirq yillar atrofida murshidlik qiladi.

Aruz va barmoq(bo‘g‘inli tizim) vaznida she‘rlar bitgan Qayg‘usiz Abdolning nasrda yozilgan asarlari ham talaygina. Uning aruzda yozilgan she‘rlari “Devon”ga jamlangan. Aksariyat she‘rlarida “Qayg‘usiz” taxallusini qo‘llagan shoir ba‘zi

o‘rinlarda “Saroyiy” va “G‘aybiy” nomlarini ham qo‘llaydi. Qayg‘usiz nomini olgan boshqa shoirlarning ham borligi uning ayrim asarlari boshqa Qayg‘usizga tegishli bo‘lishi mumkin degan shubhani ham uyg‘otadi. U o‘z asarlaridan birida 1397-1398-yillarda tug‘ilganini aytadi. Uning asarlaridan ma‘lum bo‘lishicha, XIV asrda yashagan shoir Anado‘lu va Rum elining ko‘p joylarini kezib, yaxshi ta‘lim olgan. Barmoq vaznidagi she‘rlarida va nasriy asarlarida go‘zal turk tildan foydalangan.

Ijodida tasavvufga oid she‘rlari bilan bir qatorda satirik va yumoristik ruhdagi parchalar(turk tilida shathiyalar deb yuritiladi) ham muhim o‘rin tutadi. Yunus Emro yo‘lidan yurgan shoir ana shunday she‘rlarida unga yanada yaqinlashadi.

Quyida “Devon”idan joy olgan she‘rlardan biri:

Ishq ila keldim jahona, makoni tog‘lar menman

Tark etib o‘zga borliqni, mahrami tavhid menman

Mahv etguncha araf asrorini, mast bo‘lgan ohkor menman

Shunday iqrar bo‘ldim, ol dam, Qayg‘usiz Abdol menman

Shoir bu o‘rinda ishq ila jahonga kelganligi, ya‘ni Alloh insoniyatni o‘zini sevdirish uchun, oshiq qilish uchun yaratganligini ta‘kidlamoqda. Hayotdan murod esa o‘sha ishqni anglash, ishqdan sarxush bo‘lish, chinakamiga oshiq maqomiga erishishdir. Bu yo‘lda o‘tkinchi dunyo hoy-u havaslariga aldanib qolmaslik lozimni aytib o‘tadi.

Qayg‘usiz Abdolning nazmiy, nasriy va nasr-nazm aralash shakldagi asarlari mavjud bo‘lib, ularning hammaasi bizgacha yetib kelmagan. Bugungi kunga qadar olib borilgan izlanishlar natijasida uning bir qancha she‘rlari, “Gavharnoma”, “Minbarnoma” kabi masnaviy shaklida yozilgan asarlari nashr etilgan. Biroq Qayg‘usiz asarlarining ko‘pi nashr etilmagan. Uning bizga ma‘lum asarlari quyidagilardir:

Nazmiy asarlari:

“Devon”, “Guliston”, “Masnaviy-i Bobo Qayg‘usiz “(Mesnevî -i Baba Qayg‘usiz) (I-II-III), “Gavharnoma”, “Minbarnoma”.

Nasriy asarlari:

“Budalanoma” (Budalanâme), “Kitob-i Mig‘lata”(Kitâb-ı Miğlâte), “Vujudnoma”, “Risolayi Qayg‘usiz Abdol” (Risâle-i Qayg‘usiz Abdal).

Nasr-nazm shaklidagi asarlari:

“Saroyнома”, “Dilkusho”(Dil-gusha).

• “Devon”i tarkibida uch yuz ellikka yaqin she‘rlari mavjud bo‘lib ularning sakson foizini g‘azallar tashkil qiladi . Uning 20-30 bo‘g‘inli she‘rlari bor. Bundan tashqari “Dolabnoma”(Dolâbnâme) nomli qasidasini, ikki tajri‘band, ikki tarkibband va ikki mustazodini ham devonida ko‘rishimiz mumkin. “Devon”dagi aksariyat she‘r va g‘azallar ilohiy bir kayfiyatda yozilgan. Bo‘g‘inli tizimda yozganlari ko‘proq tasavvufiy-majoziy xarakterida egadir. Bular da biz Qayg‘usiz Abdolning Tangi bilan samimiy suhbatlashishga urinishini yoki o‘tkinchi dunyo zavqlariga oshufta bo‘lgan inson ustidan shikoyatini ko‘rishimiz mumkin.

• “Guliston” asari esa “Lomakon”(makonsizlik)ni, boqiylikdagi “vahdat-ul vujud”ni tasvirlashdan boshlanadi. Borliq va Hazrati Odam alayhisalomning yaratilishi haqida uzoq hikoya qiladi. Qisas-i anbiyo qisqacha bayon qilingandan so‘ng, ma‘lum

bir mavzuga urg'u berilmaydi. Tasavvufning turli mavzulari vaqti-vaqti bilan nihoyatda hayajonli uslubda ifodalanadi.

- “Masnaviy-i Bobo Qayg‘usiz”(Mesnevî -i Baba Qayg‘usiz) (I-II-III): Ushbu qo‘lyozmada adibning masnaviy shaklida yozilgan ijod namunalari to‘plangan bo‘lib “Masnaviy I”, “Masnaviy II”, “Masnaviy III” deya uch qismga ajratilgan. Bulardan ikkinchisi “Kichik masnaviy” nomi bilan tilga olinadi va boshqalariga nisbatan hajmi qisqa. Uchala masnaviyda ham o‘ziga xos alohida mavzu belgilanmagan, berilmagan bo‘lib, ular tasavvufiy jo‘shqinlik va hayajon ila yozilgan. Qayg‘usiz masnaviylarida lirikaning cho‘qqisiga chiqadi. Aytishimiz mumkinki, uning barcha she‘rlari ichida eng yuqori otashin ruh, hayajon masnaviylarida uchraydi.

- “Gavharnoma” asari yetmish bir baytdan iborat qisqa masnaviydir. Asar Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassalomni madh etish va ulug‘lash maqsadida yozilgan. Asar boshida “vahdat-ul vujud” haqidagi qarashlarini dengizdan uzoqqa otilgan bir “gavhar” parcha deya ifodalaydi. “Gavhar”ning ruhi esa Hazrati Muhammad s.a.v.dir.

- ”Minbarnoma” asari ellik sakkiz baytdan iborat kichik masnaviy bo‘lib, unda nafsni bilish, uni tarbiyalash haqida fikrlar she‘riy bayon etilgan.

Nasriy asarlari:

“Budalanoma”da “aql-i maosh”, “aql-i maod”, qalb, nafsni bilish, murshidlik...” kabi tasavvufiy masalalar haqida so‘z ketadi.

“Kitob-i Mig‘lata”(Kitâb-ı Miğlâte). Bu asar kompozitsiya jihatidan qolgan asarlaridan ancha farq qiladi. Bu yerda bir darvesh muttasil uyquga ketib, goh o‘tmishga, goh kelajakka ro‘yosida “sayohat” qiladi. U har safar o‘ziga duch kelgan o‘z shaytoni bilan jang qiladi va uni mag‘lub etadi. Kishi e‘tiborini tortuvchi asarda o‘tmish va kelajakka oid chizgilar va bashoratlar, bugunning tili bilan aytganda, “vaqt mashinasi”ni eslatadi. Darveshning asarda vaqti-vaqti bilan kuylaydigan she‘rlari jo‘shqin lirika ifodasi bo‘lib asarni bezab turadi.

“Vujudnoma”da inson tanasining turli a‘zolari bilan ba’zi diniy, tasavvufiy va borliqqa oid tushunchalar o‘rtasida o‘xshatish, qiyoslashlar keltirilgan va ular o‘rtasida aloqa o‘rnatishga harakat qilingan. Masalan: qora qishni shariatga, yozni tariqatga o‘xshatishadi. Bosh davlat tojiga, peshona hidoyat nuriga tashbeh etiladi. Keyin esa murshidga lozim bo‘lgan ishlar tushuntiriladi. Asarda uning hol tasvirlari ham uchraydi. Unda shoir oyog‘i yerga tegmasdan, doimo osmonda, bo‘shliqlarda sarson uchib yurishi, nimanidir izlashi keltirilgan.

“Risolayi Qayg‘usiz Abdol” (Risâle-i Qayg‘usiz Abdal) Istanbul shahar kutubxonasi, Usmon Ergin bo‘limida saqlanayotgan “Risolayi Qayg‘usiz Abdol” deb nomlangan ushbu tarjima asar mazmun va shakl jihatdan Qayg‘usizning boshqa asarlaridan farq qilmaydi. Ma‘lumki, ushbu tarjima asarda Qayg‘usiz Abdol Alloh Taolonig muhabatiga yetib yo‘llari, tasavvufiy jazba, nafs tarbiyasi va kamoloti, sabr-toqatni lirik va umuman didaktik uslubda o‘rinli misollar va o‘xshatishlar bilan tasvirlaydi”.

Nasr-nazm shaklidagi asarlari:

“Dilkusho”(Dil-gusha) “Vahdat-ul vujud”ni ta’riflovchi uzun masnaviy bilan boshlanadi. Asarda forscha uzun boblar bor. Bir darveshning so‘fiyona xatti-

harakatlarini, uning o'zi aytib bergan hikoyasi bilan davom ettiruvchi "Dilkusho" butunlay so'fiylikka bag'ishlangan asardir.

"Saroyнома" "Jahon-saroy" taqlidi asosida dunyoga kelishdan maqsad Allohga ibodat qilish va Uni bilish ekani aytiladi. Qayg'usiz shariat unsurlariga eng ko'p joy bergan asar "Saraynoma"dir. Bu jihatdan boshqa she'riy asarlar bilan solishtirganda ustunlikni qo'lga kiritadi.

Qayg'usiz Abdol she'rlaridan anglash mumkinki, u juda yaxshi ta'lim olgan, so'fiylikni har tomonlama o'rgangan, ayniqsa, islom dini bo'yicha keng bilimga ega bo'lgan. Uning "Dolabnoma" deb nomlangan to'plamida "G'aybiy" taxallusini qo'llaydi va tasavvufiy unsurlarni tilga oladi:

Alay G'aybiy bundan Takka qurmas

Haqning marhamatidir, balki sinovi

Sabr namozning ostiga olmish

Tavakkaldan bog'lanmish belbog'i

So'zini Qayg'usiz orifga so'zla

Ne bilsin shukrni ushoq buzog'i deya ilohiy kayfiyatni ham Haqning marhamati, ham Uning sinovi bo'lishi mukinligini, sabr ila namoz, O'ziga tavakkal bu o'rinda yechim bo'lishini satrga ko'chiradi.

Yana uning she'rlarida uchraydigan joy nomlari va tilga olingan atoqli otlardan kelib chiqib, uning hayoti davomida ko'p joylarga sayohat qilganini, u borgan joylarning tabiiy joylashuvi va xususiyatlarini, insonlarining urf-odatlarini, kiygan liboslarini va taomlarini aks ettiruvchi satrlarni ko'rishimiz mumkin. Bu shundam dalolat beradiki, Qayg'usiz Abdol umri davomida ko'pgina yurtlarda sayohatda bo'lgan, kishilar bilan muloqotni sevgan, dunyo kezgan darveshlardan biri bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishni lozim topdikki, hech zamonda insonni butun bu borliqning bir qismi, bir zarrasi deya qarash, Haqning karomati ila qora tanga kirgan ruh ahvolidan so'zlash, uning tilini topishga urinish, o'zlikni topishga urinish kabi masalalarni qamrab olgan aziz asarlar va ularning mualliflari muhimligini yo'toqmaydi, ahamiyat markazidan tushmaydi. Zero, bu o'tkinchi dunyo tashvishlariyu, hoy-havaslar orasida o'zimizni yo'qotmasdan vazifayi amolimizni bajarish har birimiz uchun ham farz, ham qarzdir. Bu bilan Qayg'usiz Abdolning o'zini topish, ishqqa erishish, oshiq maqмага ko'tarilish, ishqqa munosib bo'lish yo'lidagi zahmatlari, qayg'u-alamlari har mo'minning qayg'usi ekanligi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prof.Dr. Abdurrahmon Go'zal, Turk xalq she'riyati.
2. Бертельс Е.Эю Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1995. С. 54
3. Najmiddin Komilov, Tasavvuf. T.: "Movaraunnahr – O'zbekiston", 2009.
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Kaygusuz_Abdal
5. <https://www.turkedebiyati.org/kaygusuz-abdal/>
6. <https://www.turkedebiyati.org/kaygusuz-abdal/>
7. <https://aregem.ktb.gov.tr/TR-12787/kaygusuz-abdal-1341--1444-.html>
8. Prof. Abdurrahmon Go'zal. Alovuddin G'aybiy Qayg'usiz Abdal(hayoti va asarlari), Anqara, 2023